

“MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA NAVOIY VILOYATIDA IJTIMOIY HIMOYA VA TIBBIYOT TIZIMIDAGI MUAMMOLAR HAMDA ISLOHOTLAR (1991–2000-YILLAR)”

Parmonov Husan Shomurot o'g'li

Navoiy davlat universiteti

Tarix fakulteti Tarix kafedrası o'qituvchisi Mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21676299>

Annotatsiya. Mazkur maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida (1991–2000-yillar) Navoiy viloyatida amalga oshirilgan ijtimoiy himoya siyosati hamda sog'liqni saqlash tizimining holati arxiv hujjatlari va rasmiy me'yoriy-huquqiy manbalar asosida tadqiq etilgan. Tadqiqotda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, nogironlar, pensionerlar, kam ta'minlangan oilalar va yolg'iz keksalarga ko'rsatilgan davlat yordami, bandlikni ta'minlash, reabilitatsiya markazlari va ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, viloyatda tibbiyot tizimining moddiy-texnik holati, sil, o'sma, endokrin va yuqumli kasalliklar dinamikasi, onalar va bolalar salomatligi, ekologik omillarning aholi salomatligiga ta'siri hamda sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan islohotlarning natijalari ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqot natijalari “kuchli ijtimoiy siyosat” tamoyili asosida olib borilgan davlat siyosati iqtisodiy transformatsiya sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish va tibbiyot tizimini modernizatsiya qilishning muhim omiliga aylanganligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. Mustaqillik, Navoiy viloyati, ijtimoiy himoya, sog'liqni saqlash, tibbiyot tizimi, ijtimoiy siyosat, nogironlar, reabilitatsiya, bandlik, pensionerlar, kam ta'minlangan oilalar, onalar va bolalar salomatligi, sil kasalligi, endokrin kasalliklar, ekologik omillar, bozor iqtisodiyoti, ijtimoiy islohotlar, arxiv hujjatlari.

Navoiy viloyatida mustaqillikning ilk yillarida aholini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida viloyatda istiqomad qiluvchi 400 dan ortiq yakka-yolg'iz va kam daromadli oilalar o'z xonadonlariga tabiiy gazni olib kirish uchun bir martalik yordam berildi;

18 bolani o'z qaramog'iga olgan Pardayeva Munavvarga 180 metr kavdratga ega bo'lgan uy berildi;

980 o'qituvchi-tarbiyachilarga yer uchastkalari ajratildi;

20 000 dan ortiq pedagoglar kommunal to'lovlarni to'lashdagi imtiyozlardan foydalandi¹. Sohada bir qator ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, Viloyat ijtimoiy ta'minot boshqarmasi o'z binosiga ega emas. Boshqarma o'zi ishlab topgan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga Navoiy tumanida ijtimoiy ta'minot idorasi binosi qurilishi boshlandi, Viloyatda 980 nafar yolg'iz qarovsiz pensionerlar yashaydilar. Ularning 203 nafari Qizilqum sahrosida istiqomat qiladilar. Ularga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik qoniqarli emas. Viloyatda qariyalar uyini tashkil etish zarurati mavjud.

Islohotlarni amalga oshirishning muhim sharoitida pensionerlarni, nogironlarni, qarovsiz yolg'iz kishilarni va aholining kam ta'minlangan qatlamini himoya qilish borasidagi dastur asosida 1994-1995-yillarda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

¹ Навоий вилоят давлат архиви. 100- фонд, 1-рўйхат, 31- иш, 108- варак

Shahar va tuman hokimlari bilan birgalikda joylarda aholidan kiyim-kechak mollari qabul qilib oluvchi va kam ta'minlangan toifadagi kishilarga bepul tarqatuvchi "Mehr-shafqat" salonlari ochilib, ishga tushirildi;

Pensiya va nafaqalarni tarqatuvchi kichik korxonalar, yordamchi xo'jaliklar faoliyatini yanada yaxshilash va ulardan tushgan foydani ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar turmush darajasini yaxshilashga sarflandi;

Yolg'iz-yordamga muhtoj kishilarga Respublika Prezidenti farmoni asosida berilayotgan imtiyozlardan to'liq foydalanishga aloqador tashkilotlar ishini doimiy nazorati yo'lga qo'yildi;

Ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilarni yashash va turmush darajasini yaxshilash maqsadida otaliq tashkilotlar bilan birgalikda ishlash tizimi yo'lga qo'yildi;

Ishlash qobiliyatiga ega III-guruh nogironlarining sog'lig'ini tiklash, ish bilan ta'minlash uchun joylarda turli xildagi shirkatlar ochish va uni ishga tushirish yo'lga qo'yildi;

"Uchqora" bolalar dam olish oromgohini nogiron bolalar dam oladigan va sog'lig'ini tiklaydigan maxsus oromgohga aylantirildi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasidan qariyalar uyi va ruhiy kasalliklarni davolanish uyini qurish uchun mablag'lar ajratildi.

1994-yilda aholini umumiy soni 734,5 ming kishini tashkil qilishini ko'zda tutgan holda, hisob kitoblarga qaraganda, mehnat resurslari 375,9 ming kishini tashkil etadi. Shundan xalq xo'jaligida 292 ming kishi (29,8%) band bo'ladi. 1995-yilga borib sanoat obyektlarining ishga tushirilishi evaziga xalq xo'jaligiga mehnat resurslarining katta qismi jalb qilinadi. "Aholining bandligi haqida"gi qonunning chiqishi aholini ish bilan ta'minlashga e'tiborni oshirish kerakligini ko'rsatadi. Shuning asosida sanoat korxonalari, kichik korxonalar tashkil etilib, qo'shimcha ishchi o'rinlari hosil qilish lozim. Bu qo'shimcha ish o'rinlarini ko'proq qishloq joylarda tashkil qilishga e'tibor berildi.

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tishning "O'zbek-modeli" respublikada belgilangan "kuchli ijtimoiy siyosat" tamoyili islohotlarning bosh mezoniga aylandi. Mazkur strategik yondashuv iqtisodiy liberallashtirish jarayonlarida "islohot - islohot uchun emas, balki inson uchun" degan g'oyani ilgari surib, aholining turmush darajasi keskin pasayib ketishining oldini olishga xizmat qildi. Davlatning ijtimoiy sohadagi faol ishtiroki nafaqat kam ta'minlangan qatlamlarni qo'llab-quvvatlash, balki ta'lim, sog'liqni saqlash va mahalla instituti orqali manzilli ijtimoiy himoya tizimini shakllantirishda ham namoyon bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy transformatsiya davrida jamiyatda ichki barqarorlik va konsensusni saqlab qolishning muhim omili bo'lib xizmat qildi.

1996-2000-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risidagi qarori asosida Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tizimida Respublika Milliy reabilitatsiya va protezlash markazining tashkil qilinishi va har biri 50 o'rinli jami 500 o'ringa mo'ljallangan 10 ta nogironlar uchun mintaqaviy reabilitatsiya markazlari hamda poliklinika va statsionarlarda reabilitatsiya bo'limlarining ochilishi asosida 1996-2000-yillarda nogironlarni reabilitatsiya qilish tizimi tashkil qilindi. Buxoro, Farg'ona, Jizzax va Navoiy viloyatlarida ortopedik markazlari ochildi ².

² Акбаров Р. Келажакка умид билан (Ўзбекистон ногиронлар жамиятнинг 2-курултойи) / Қадрият. – Тошкент, 2001, 1 декабр, №35-40(150-155). – Б. 2

Mustaqillikning dastlabki yillarida ijtimoiy sohaning asosiy tayanchi bo'lgan tibbiyot sohasi Navoiy viloyatida achinarli holatda bo'lganligi arxiv materiallari ham tasdiqlab turibdi. Tahlili shuni ko'rsatdiki, har 1000 aholiga nisbatan birlamchi kasallanish ko'rsatkichi 1992-yilda 505 ta holatdan 1997-yil yakunida 601 ta holatgacha qariyb 19 foizga ortib aholi o'rtasida kasallanish darajasining o'sish tendensiyasi kuzatilgan³.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida yuz bergan bir qator qiyinchiliklar aholi o'rtasida qo'yidagi kasalliklarni oshib ketishiga olib keldi:

Sil kasalligi bilan kasallanish 1992-yil yakuni bo'yicha yuz ming aholiga nisbatan 49,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1997-yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatgich yuz ming aholiga 60,5 foizga teng bo'ldi. Sil kasalligi bilan kasallanish viloyatning Tomdi, Konimex, Uchquduq, Navbahor tumanlarida, Navoiy, Zarafshon shaharlarida juda yuqoriligini ko'rsatdi. Joylarda ko'chma flyurografiya mashinalarning bo'lmaganligi, aholining ko'pchilik qismi uzoq masofalarda joylashganligi bois flyuro ko'rikdan o'z vaqtida o'tkazilmaganligi tufayli sil kasalligining og'ir formalari salmog'i ortgan va kasallanish ko'rsatkichlarini yanada oshishiga sabab bo'lgan.

O'sma kasalliklari bilan kasallanish ko'rsatkichlarini 1992-yil yakuni bo'yicha har 100000 aholiga nisbatan o'sma kasalliklari bilan kasallanish 83,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1997-yil hisoboti bo'yicha 92 foizga yetgan.

1992-yilda Tanosil kasalliklari sirasiga kiruvchi zahm kasalligi bor yo'g'i 10 ta qayd qilingan bo'lsa, 1997-yil yakuni bo'yicha esa 695-ta zahm kasalligi qayd etilib, har 100000 aholiga nisbatan 90,3 foizni tashkil etdi.

Endokrinologik (ichki bezlar bilan kasallanish) kasalliklar, 1992-yil yakuni bo'yicha har 100000 aholiga endemik buqoq kasalligi bilan kasallanish 667,3 tani tashkil etgan bo'lsa, 1997-yil hisoboti bo'yicha har 100000 aholiga nisbatan endemik kasalliklar 1137,8 tani tashkil etib 3-4 barobar ko'paygan. Eng yomon tamoni shundaki, Endemik kasallik bilan kasallangan homilador ayollardan 100% nogiron aqli zaif bolalar tug'ilishini olimlar tomonidan isbotlab berishgan. Shuningdek, narkomaniya, toksikomaniya kasalliklari 1992-yilda har 100000 aholiga 3,2 foizgaga teng bo'lsa, 1997-yil yakuni bo'yicha 5,9 foizga yetdi⁴.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida yuz bergan bir qator qiyinchiliklar aholi o'rtasida qo'yidagi kasalliklarni oshib ketishiga olib keldi:

Sil kasalligi bilan kasallanish 1992-yil yakuni bo'yicha yuz ming aholiga nisbatan 49,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1997-yil yakuni bo'yicha bu ko'rsatgich yuz ming aholiga 60,5 foizga teng bo'ldi. Sil kasalligi bilan kasallanish viloyatning Tomdi, Konimex, Uchquduq, Navbahor tumanlarida, Navoiy, Zarafshon shaharlarida juda yuqoriligini ko'rsatdi. Joylarda ko'chma flyurografiya mashinalarning bo'lmaganligi, aholining ko'pchilik qismi uzoq masofalarda joylashganligi bois flyuro ko'rikdan o'z vaqtida O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki yillarida istiqomat qiladigan jami 22 million aholining 350 ming nafari nogironligi bo'lgan shaxslar edi Ayniqsa, nogironlik 1991-yildan 1996-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida 67% ga o'sgan edi⁵. Hisob-kitoblar tahlili shuni ko'rsatadiki 1 nafar kasalmand tug'ilgan bolaga

³ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 304-yig'majild, 22-varaq.

⁴ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 304-yig'majild, 19-varaq.

⁵ Ўзбекистон Республикасида алоҳида эҳтиёжли кишилар учун фаолият юритаётган муассаса ва ташкилотлар ҳақида маълумотнома. Тошкент, 2018. – Б.17.

tibbiyot sohasida qilingan xarajat 12 nafar sog'lom bolaga profilaktik tibbiy yordam ko'rsatish bilan barobar.

Aholi salomatligini mustahkamlashga oid chora-tadbirlar viloyatning barcha hududlarida bir tekisda qamrab olinmagan. Ayniqsa, qishloq va olis cho'l hududlarida nuqsonli bolalar tug'ilish sur'ati nisbatan yuqori bo'lib, qarindoshlar o'rtasidagi nikoh munosabatlarining o'rnatilishi, malakali shifokorlarning yetishmasligi, ekologik vaziyat ta'siri kabi omillar Navoiy viloyatida ham nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ortishiga sabab bo'ldi. Viloyatning ayrim tumanlarida tug'ilish ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan Nurotada 28,9 foizni, Xatirchida 25,8 foizni, Navbahorda 25,4 foizni, Qiziltepada 24 foizni tashkil etgan. E'tiborlisi, aynan mazkur tumanlarda kasalmand, nogiron bolalar tug'ilishi salmog'i bo'yicha yetkachi bo'lgan⁶. Tug'ish yoshidagi 75 foizdan ko'proq ayollar har xil ekstragenital kasalliklar bilan kasallanishi, qizlarning yosh paytda ota-onalar tomonidan turmushga berilishi, tug'ruq qoidalariga rioya etilmasligi viloyatda onalar o'limi holati yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan. 1997-yil viloyatda 7 ta onalar o'limi qayd etilgan bo'lsa, 1998-yilda 9 ta tashkil etgani achinarli hol. Bunday holatlar asosan tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan Nurota, Xatirchi, Qiziltepa va Navbahor tumanlariga to'g'ri keladi.⁷

Viloyatda og'ir ekstragenital xastaliklari bor ayollarni tug'ruqdan cheklash tufayli 6 yil ichida 15 mingdan ortiq kasalmand, nogiron bolalarni kam tug'ilishiga erishildi. Tuman va shaharlarda tibbiy muassasalariga onalar va bolalar o'limini kamaytirish vazifasi yuklatildi.

«O'zbekiston Respublikasining nogironlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha 1996-2000-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturi to'g'risida»gi 1995-yil 11-sentyabrda qabul qilingan qarori asosida 500 o'ringa mo'ljallangan Respublika milliy reabilitatsiya va protezlash milliy markazi tashkil qilindi. Natijada ahaoli orasida nogironligi bo'lgan shaxslar soni 1996-yildan 2000-yilgacha va 2007-yildan 2010-yilgacha kamayib bordi⁸. 1996-yilda 82551⁹ nafar, 2014-yilga kelib, respublika aholisi soni 30 milliondan oshdi va ular orasida nogironligi bo'lgan shaxslar soni 600 mingdan ortiqni tashkil qildi¹⁰.

1997-yilda Navoiy viloyatida 779 ming nafar aholi istiqomat qilib, ularning 49 foizi erkaklar, 51 foizi ayollar, shu jumladan 183 ming tug'ish yoshidagi ayollar, 15 yoshgacha bo'lgan bolalar 39,5 foizni tashkil etgan. 1997-yil yakuni bilan 17507 nafar bola tug'ilgan, har 1000 aholiga nisbatan 22,7 foizni tashkil etdi. viloyatda 1,38 foizni tashkil etdi¹¹.

⁶ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 304-yig'majild, 19-varaq.

⁷ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 304-yig'majild, 20-varaq.

⁸ Холикуова Х. Ўзбекистонда имконияти чекланган шахсларни ҳимоя қилиш сиёсати (1991-2014 йй.) Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент: 2016. – 215 б

⁹ ЎЗМДА, М.110-жамғарма, 1-рўйхат, 2137-йиғма жилд. 1-варак.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ногиронлиги бўлган шахсларни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони. www.lex.uz.

¹¹ Navoiy viloyati davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 304-yig'majild, 21-varaq.